


YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar-iyunida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 8 877,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,9 % ga o'sdi.





YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,8 % ga yetdi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YaHM	7 320,1	8877,2	104,9
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7200,3	8632,3	104,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	119,8	244,9	104,7
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7200,3	8632,3	104,9
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3256,2	3992,8	100,8
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1487,4	1741,7	111,1
	sanoat	874,4	1127,4	114,7

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	613,0	614,3	105,8
	Xizmatlar	2456,7	2897,8	106,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	472,1	550,7	103,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	280,6	350,2	113,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	1704,0	1996,9	106,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6 261,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 46,3 % ni, sanoat tarmogʻi 13,1 % ni, qurilish 7,1 % ni va xizmatlar sohasi 33,5 % ni tashkil qildi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	98,4	97,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1,6	2,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	45,2	46,3
	Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)	20,6	20,2
	sanoat	12,1	13,1
	qurilish	8,5	7,1
	Xizmatlar	34,2	33,5
	savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	6,6	6,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,9	4,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,7	23,0




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 100,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 46,3 %), sanoatda – 114,7 % (13,1 %), qurilishda – 105,8 % (7,1 %), xizmatlar sohasida – 106,6 % ni (33,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,4 % (6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,1 % (4,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,4 % dan (23,0 %) iborat bo'ldi.




Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida – 1,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida salbiy – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-iyunida salbiy – 0,03 f.p.) ga oshgan.




2021- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiqa nisbatan % da)



2021-yil yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'rmon va baliq xo'jaligida – 121,6 % va sanoat tarmog'ida – 112,4 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar- iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 78,9 % ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-iyunida – 79,3 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi Tel.: (72) 221-53-51